

Qadring baland bo'lsin, ona tilim

O'zbek tili dunyodagi qadimiy, go'zal va boy tillardan biri hisoblanadi. Tilning beqiyos imkoniyatlarini qadimgi toshbitiklarda, xalqimizning zamonlar sinovidan o'tib kelayotgan maqol va iboralari, dostonlarida, shoir va yozuvchilarimiz asarlarida yaqqol ko'rish mumkin. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" kitobi, Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Alisher Navoiyning "Xamsa"si, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si, Mashrab, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Matnazar Abdulhakim, Muhammad Yusufning asarlari ona tilimizda yozilgan bebaho durdonalardir.



21 oktyar - O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 32 yilligi munosabati bilan TIQXMMI Buxoro filialida O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistentlari Nasibaxon Ibodova hamda Nodira Boltayevalar tomonidan "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" mavzusidagi madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirni yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Gulchehra Isoqova ochib berdi. Tadbirda talaba yoshlar ona tilimizni madh etuvchi she'rlar va kuy-qo'shiqlar ijro etdilar. Tadbirda mehmon sifatida ishtirok etib, so'zga chiqqan "Turon" Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Ro'zimurod Mahmudov tilimizning tarixi va taraqqiyot yo'li haqida fikrlarini bildirdi. Ona tilimizga bag'ishlab bitgan she'rlaridan yig'ilganlarga o'qib berdi. Shuningdek, Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro shahar bo'linmasi rahbari A.Hakimov, bosh mutaxassisi G.Hodiyeva hamda faxriy ustoz M.Qurbonovalar so'zga chiqib, ona tilimizning rivoji va taraqqiyoti uchun har birimiz mas'ul ekanligimiz borasida gapirib o'tdilar. Bugungi tadbirni tashkil etgan tashkilotchilarga, ishtirokchi talabalarga hamda bo'lim uslubchisi Gulchiroy Adizovaga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.



Ayniqsa, tadbirda o'z she'rlari va raqslari bilan chiqish qilgan Buxoro shahar 23-IDUM o'quvchilarining chiqishlari barchaning olqishiga sazovor bo'ldi. Darhaqiqat, ona tilimizga muhabbatni odamlarning samimiy suhbatlarida ko'rib, beixtiyor shunday el farzandi ekanligimizdan faxrlanamiz. Zero, til inson qiyofasi va ichki go'zalligini namoyon etadigan eng go'zal tuyg'udir. O'z tiliga muhabbatli inson xalqini, vatanini, qadriyatlarini, madaniy merosini ham e'zozlaydi. Alisher Navoiy bobomiz bejiz "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz" deya yozmagan.



TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati